

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN JOZIBALI  
PARDOZLASH ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN JOZIBALI PARDOZLASH ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Jozibali pardoqlash asoslari fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Jozibali pardoqlash asoslari**

1. Kosmetologiya tarixi haqida umumiy ma‘lumotlar;
2. Yuz qismlari antropologiyasi asoslari xaqida ma‘lumot;
3. Teri va ularning tasnifnomasi xaqida ma‘lumot.
- 4.Qarish jarayoninig mikroфизиологик tasnifi;
5. Terining yoshga xos o‘zgarishlari .Yuz parvarishi usullari;
6. Professional pardoqning asosiy usullari.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

<b>T/r</b>	<b>Mazmun sohalar</b>	<b>Sartaroshlik</b>	<b>Testlar soni</b>
<b>1</b>	Kosmetologiya tarixi haqida umumiy ma'lumotlar	Kosmetologiya tarixi kelib chiqishi teri funksiyalari haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim	3 ta
<b>2</b>	Yuz qismlari antropologiyasi asoslari haqida ma'lumot	Inson yuz va bosh shakillariga to'ri baho berish va pardoqlashda yuz qism antropologiyasiga o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	3 ta
<b>3</b>	Teri va ularning tasnifnomasi haqida ma'lumot	Teri tasnifi haqida bilimga ega bo'lishi va teri turlarini to'g'ri tashkil qilish to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.	4 ta
<b>4</b>	Qarish jarayoninig mikrofiziologik tasnifi	Inson terisidagi qarish jarayonini to'g'ri tahlil qilish va unung sabablarini aniqlash bilim tamoyillarini tushunish haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	8 ta
<b>5</b>	Terining yoshga xos o'zgarishlari Yuz parvarishi usullari	Yuz terisini parvarish qilish ishlash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	10 ta
<b>6</b>	Professional pardoqning asosiy usullari haqida ma'lumot.	Professional pardoqning asosiy usullarini bilish uni bajarish jarayonida uslub texnikasi ketma - ketligini to'g'ri va aniq bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	12 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

<b>T/r</b>	<b>Kognitiv daraja</b>	<b>Izohi</b>	<b>Ulushi (%)</b>
<b>1.</b>	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
<b>2.</b>	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
<b>3.</b>	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-	20 %

		ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	
--	--	--------------------------------------------------------------------	--

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtixon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Jozibali pardoqlash asoslari Z.Axmedova Toshkent Sharofat nur fayz 2024
2. Plastik anatomiya va fiziologiya Z.G' Saidmurodova Toshkent Osiyo nashriyotini 2025

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish

*jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*